

TILLARDA ZAMON KATEGORIYASINI UMUMIY-QIYOSIY O'RGANISH

Furkat Rakhmatov

furkatrakhmatov2020@gmail.com

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola qiyosiy tilshunoslikka bag'ishlangan bo'lib, unda nemis va o'zbek tillari zamon kategoriyalari qiyosan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, qiyosiy lingvistika, zamon kategoriyasi, fe'l so'z turkumi.

GENERAL-COMPARATIVE STUDY OF TIME CATEGORIES IN LANGUAGES

Furkat Rakhmatov

furkatrakhmatov2020@gmail.com

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

ABSTRACT

This article is devoted to comparative linguistics, in which a comparative analysis of contemporary categories of German and Uzbek languages.

Keywords: linguistics, comparative linguistics, tense category, verb category.

KIRISH

Grammatik zamon kategoriyasi tillarda eng ko'p tarqalgan fe'l kategoriyalaridan biridir. Fe'lning zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq sodir bo'lishi paytiga nisbatan amalga oshishini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan bu kategoriya gapirilayotgan paytda, gapirilayotgan paytdan oldin, gapirilayotgan paytdan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Ko'pchilik tillarda zamon grammatik kategoriyasi ana shu uch xususiy ma'nodan tashkil topgan. Hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanayotgan vaqtda sodir bo'layotgan ish-harakatni anglatadi, masalan:

Ich lese eine Zeitung. Men jurnal o'qiyapman.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Undan tashqari, bu zamon yana bir qator qo'shimcha ma'nolarni:

1) doimiy to'xtovsiz takrorlanib turadigan ish-harakatni:

Toshkent - O'zbekistonning poytaxti.

Im Herbst fliehen viele Vögel nach Westen.

2) ma'lum vaziyatda kelasi zamon ma'nosini:

Ertaga uyga ketyapman.

Morgen gehe ich nach Hause.

3) o'tgan zamon ma'nosini ham anglatishi mumkin.

Gestern kommt er zu mir und ich bin nicht zu Hause.

O'zbek tilida bu zamonning hozirgi-kelasi zamon fe'li; hozirgi zamon davom fe'li turlari bor.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq jarayonida va undan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Bu ma'no fe'l o'zagiga – *a* (-y) ravishdosh yasovchi affiksial morfni qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi:

Ishni hoziroq boshlaymiz.

Ular bugun kelishadi.

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning aynan nutq jarayonida sodir bo'layotganini ifodalaydi. Bu ma'no fe'lga –*yap*, –*yotib*, –*moqda* affiksial morflarni qo'shish va tushlash yo'li bilan ifodalanadi.

Gazeta o'qiyapmiz (o'qimoqdamiz, o'qiyotibmiz).

O'tgan zamon nutq jarayonidan oldin bo'lib o'tgan ish-harakatni anglatadi. Bu ma'no turli tillarda turlicha: rus tilida – *л* affiksi yordamida, ingliz tilida, agar fe'l to'g'ri fe'llar turkumiga mansub bo'lsa, –(e)d affiksi yordamida, agar u noto'g'ri fe'l bo'lsa, suppletiv, yo fe'l o'zagidagi tovushlarning o'zgartish orqali ifodalanadi:

Ba'zi tillarda o'tgan zamon bir nechta ko'rinishga ega. Bunday tillarga o'zbek va nemis tillari yaxshi misol bo'la oladi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida o'tgan zamonning yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li va o'tgan zamon maqsad fe'li farqlanib, ularning har biri o'z ifoda vositasiga ega.

Yaqin o'tgan zamon fe'l o'zagiga –*di* affiksini qo'shish va tushlash, uzoq o'tgan zamon sifatdosh yasovchi-gan affiksini qo'shish va tushlash, (edi, ekan to'liqsiz fe'llarning – gan affiksini olgan fe'l formasi bilan birikishi natijasida), o'tgan zamon hikoya fe'li fe'l o'zagiga ravishdosh yasovchi –*b(ib)* affiksini qo'shish va tushlash, o'tgan zamon davom fe'li –(a)r affiksi yordamida yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini tushlab biriktirish, –*yotgan* affiksi bilan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini tushlab biriktirish, fe'l o'zagiga – *moqda* affiksini qo'shib, edi to'liqsiz fe'lini tushlab biriktirish va o'tgan zamon maqsad fe'li o'zagiga – *moqchi* affiksini qo'shish hamda, edi to'liqsiz fe'lini tushlab biriktirish yoki – *digan*

affiksi yordamida yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini tuslab, birlashtirish bilan ifoda etiladi.

Yaqin o'tgan zamon:

Men ishladim - Biz ishladik.

Sen ishlading - Siz ishladingiz.

U ishladi - Ular ishladilar.

Uzoq o'tgan zamon:

Men ishlaganman - Biz ishlaganmiz.

Sen ishlagansan - Siz ishlagansiz.

Men ishlagan edim. - Biz ishlagan edik.

Sen ishlagan ekansan - Siz ishlagan ekansiz.

U ishlagan emish - Ular ishlagan emish(lar).

O'tgan zamon hikoya fe'li:

Men ishlabman - Biz ishlabmiz.

Men ishlab edim - Biz ishlab edik.

Sen ishlabsan - Siz ishlabsiz.

Sen ishlab eding - Siz ishlab edingiz va hokazo.

O'tgan zamon davom fe'li:

Men ishlar edim - Biz ishlar edik.

Men ishlardim - Biz ishlardik.

Men ishlayotgan edim - Biz ishlayotgan edik.

Men ishlamoqda edim - Biz ishlamoqda edik va hokazo.

O'tgan zamon maqsad fe'li:

Men ishlamoqchi edim - Biz ishlamoqchi edik.

Men ishlaydigan edim - Biz ishlaydigan edik va hokazo

Hozirgi zamon nemis tilida kelasi zamonning ikki turi ajratiladi. Bu ikki zamon ingliz tilidagi birinchi va uchinchi kelasi zamon turlariga mos kelib, analitik vositalar yordamida yasaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek tilidagi kelasi zamon boshqa tillardagidan ancha farq qiladi. O'zbek tilida sof kelasi zamon ma'nosini anglatadigan fe'l shakli yo'q. Yuqorida aytilganidek fe'lning bir shakli ayni vaqtda ham hozirgi, ham kelasi zamonni anglataveradi. Haqiqiy kelasi zamon kelasi zamon gumon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'lidan iborat bo'ladi.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so'zlangandan so'ng sodir bo'lishini taxmin qilinishini anglatadi. Bu ma'no - (a)r affiksial morfemasi bilan yasalgan sifatdoshni tuslash orqali ifoda etiladi.

Men ishlarman - Biz ishlarmiz.

Sen ishlarsan - Siz ishlarsiz.

U ishlar - Ular ishlar.

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq jarayonidan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan, mo'ljallangan ish-harakatni anglatadi. Bu ma'no fe'l o'zagiga – moqchi affiks morfemasini qo'shish va tushlash bilan, yoki hozirgi zamon ravishdoshiga – digan affiks morfemasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi.

Men ishlamoqchiman – Biz ishlamoqchimiz.

Men ishlaydiganman – Biz ishlaydiganmiz.

Sen ishlamoqchisan – Siz ishlamoqchisiz.

Kelasi zamonning o'zbek tilidagi ko'rinishlari bizga ma'lum bo'lgan Hind-ovrupa tillarining birortasiga ham mos kelmaydi. Demak, har bir tilning o'ziga xos grammatik ma'no turlari va ularni ifoda qilish uslublari bor.

Nemis tilida 6 ta zamon bor: das Präsens, das Präteritum, das Perfekt, das Plusquamperfekt, das Futur I va das Futur II.

Perfekt- o'tgan zamon shaklining haben yoki sein yordamchi fe'llari bilan yasalishi

haben bilan quyidagi fe'llar o'tgan zamon shaklini yasaydi:

1. barcha o'timli fe'llar:

Er *hat* seinen Freund besucht. Er *hat* den Weg gefunden.

Eslatma:

(1) *haben yordamchi fe'li (Akkusativobjekt) tushum kelishigi ma'lum gaplarda har doim kelavermaydigan o'timli fe'llar bilan ham qo'llanadi:*

Die Mutter *hat* gegessen. Der Lehrer *hat den* ganzen Abend gelesen.

(2) ba'zi o'timli fe'llar o'tgan zamon shaklini *sein bilan yasaydi. Bunday fe'llar qatoriga sodda fe'l shakli sein yordamchi fe'li bilan qo'llanadigan qo'shma yoki yasama fe'llar kiradi:*

Der Schauspieler ist den Vertrag mit dem Stadttheater *eingegangen*. Der Jurist *ist die* Paragraphen *durchgegangen*. Der Patient ist seine Krankheit *los geworden*.

2. Barcha o'zlik olmoshi *sich* bilan qo'llanuvchi fe'llar :

Er *hat sich* über das Geschenk Der Junge *hat sich* die Zähne geputzt. Du *hast dir* den Sprung vom 3-Meter-Turm nicht zugetraut.

3. barcha modal fe'llar bilan:

Der Junge *hat ins* Kino gehen *wollen*.

Er *hat in* die Schule *gemusst*, (ugs.)

Der Patient *hat den* Arzt nicht aufsuchen *können*.

Der Meister *hat zur* Direktion gehen *sollen*.

4. barcha *shaxssiz fe'llar* bilan:

Gestern *hat es* geregnet und geblitzt. In der vorigen Woche *hat es* geschneit.

Shuningdek *dunkeln, herbsten, nieseln, tagen* v.b. shaxssiz fe'llar.

Eslatma:

(1) ba'zi shaxssiz fe'llar o'tgan zamon shaklini *sein bilan yasaydi*. Bunday fe'llar qatoriga sodda fe'l shakli *sein yordamchi fe'li bilan qo'llanadigan qo'shma yoki yasama fe'llar kiradi*:

Gestern *ist es* um die Weltmeisterschaft *gegangen*.

Es ist auf eine kompetente Entscheidung *angekommen*.

Sein yordamchi fe'li bilan o'tgan zamon shaklini yasaydigan fe'llar:

1. o'timsiz fe'llar bilan kelganda:

Der Kranke ist aufgestanden. Der Patient ist gestorben. Die Blume ist verblüht.

Die Suppe ist angebrannt.

2. barcha ish- harakatni ifodalovchi fe'llar qo'llanganda (bunday fe'llar asosan o'rin o'zgarishini ifodalaydi):

Der Sportler ist gelaufen. Wir sind durch den Wald gewandert. Der Tourist ist nach Tunesien geflogen. Der Gast ist pünktlich gekommen.

3. *sein va bleiben* fe'llari kelganda:

Er ist lange Zeit im Ausland gewesen.

Er ist bis ins hohe Alter Sportler geblieben.

Eslatma: *werden* fe'li ham o'tgan zamon shaklini *sein* bilan yasaydi:

Es *ist kalt geworden*.

4. sodda fe'l shakli o'tgan zamonda *sein* bilan qo'llanadigan qo'shma yoki yasama fe'llar ham o'z o'tgan zamon shaklini *sein* bilan yasaydi:

Die Akademie ist mit dem Produktionsbetrieb einen Vertrag eingegangen.

O'tgan zamon shaklida haben va/yoki sein bilan qo'llanuvchi fe'llar:

Odatda nemis tili grammatikasida shu narsa qoidaga muvofiqi, o'tgan zamon shaklida **sein** bilan qo'llanuvchi fe'llar **haben** bilan va aksincha ham qo'llanmaydi. Ammo shunday fe'llar borki, ular o'z o'tgan zamon shakllarini ham **haben** bilan, ham **sein** bilan yasashi mumkin. Quyidagilar shular jumlasidandir:

1. Shunday fe'llar mavjudki, ular Perfektda **haben** bilan ham, **sein** bilan ham qo'llanadi: ularning anglatgan ma'nosi, talab qilgan kelishigi ham ahamiyatga ega emas. Asosiy farq shundaki, agar fe'l harakatning davom etishini ko'rsatsa **haben** bilan, agar u harakatning biror tomonga yo'nalganligini, harakatda o'rin o'zgarishini ifodalasa **sein** bilan ishlatiladi:

Sie *hat* früher sehr viel getanzt. Sie ist durch den Saal getanzt. Er hat drei Stunden gesegelt. Er ist nach der Insel gesegelt.

Shuningdek: flattern, reiten, rudern

Eslatma:

(1) Harakat fe'llari asosan o'tgan zamon shaklida *sein* bilan qo'llaniladi. Ularning ko'pchiligi o'timsiz fe'llar hisoblanadi:

fliegen, galoppieren, klettern, laufen, reisen, schwimmen, springen

(2) Shunday fe'llar ham borki, bunday fe'llar bilan *sein* va *haben* ko'makchi fe'llarini qo'llashda chalkashmovchiliklar uchraydi. Bunday fe'llar qatoriga holat o'zgarishini ifodalovchi fe'llar kiradi, ular na harakatning sodir bo'lishini, na holatni ifodalaydi:

Der Lehrer *hat* schnell gealtert. Der Lehrer *ist* schnell gealtert.

Wein *hat* gegoren. Der Wein *ist* gegoren.

(3) *liegen, sitzen va stehen* fe'llari bilan Germaniyaning o'rta qismlarida *haben*, janubiy qismlarida esa *sein* qo'llaniladi:

Er *hat/war* an seinem Schreibtisch *gegessen*.

2. Ba'z fe'llar o'zlari anglatgan ma'no va talab qiladigan kelishigiga qarab o'tgan zamon shaklini *haben* yoki *sein* bilan yasaydi:

Er *hat* die Blume *abgebrochen*.

Die Blume *ist* *abgebrochen*.

Das Schiff *hat* den Hafen *angelaufen*.

Die Produktion *ist* *pünktlich* *angelaufen*.

Der Junge *hat* den Handwagen *gezogen*.

Die Familie *ist* aufs Land *gezogen*.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, fe'llarda zamon kategoriyasi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur lisoniy fenomenni ikki til doirasida qiyosan o'rganish maqsad qilindi. Ushbu jarayonda shu narsa ko'zga tashlandiki, har ikki til doirasida o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlar mavjud bo'lsada, ularni hosil qilish va qo'llashda farqli jihatlar mavjuddir.

REFERENCES

1. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhalilova, D. (2020). NEMIS VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLAR TASNIFI. *Science and education*, 1(8), 330-340.
2. Рахманова, Д. А., Усмонходжаева, М. А., Санакулов, З. И., & Зарипова, Г. Ф. (2020). НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИГИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ТИЗИМИ. *Science and education*, 1(8), 537-546.

3. Рахматов, Ф. (2014). Lieder im Deutschunterricht. *Таълим самарадорлиги*, 137-141.
4. Рахматов, Ф., & Тилолова, Г. (2013). Чет тилини ўқитишда хориж тажрибаси ва грантларнинг аҳамияти. *Чет тилини ўқитишда методика, малака ва тажриба*, 259-261.
5. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. (2020). Немис ва ўзбек тилларида сўз яшаш усуллари (композицион усул мисолида). *Academic Research in Educational Sciences*, 1(2), 241-248.
6. Зарипова, Г., Абдухалилова, Д., Усмонходжаева, М., & Санакулов, З. (2020). Сўз ясалиши лексикографиянинг муҳим объектларидан бири сифатида (немис ва ўзбек тиллари мисолида). *Academic Research in Educational Sciences*, 1(2), 249-258.
7. Sanakulov, Z. (2020). The System of Word Formation in Modern German and Uzbek Languages and its Comparative Analysis. *Ученый XXI века*, 5(2), 61-65.
8. Sanakulov, Z. I. (2020). Interpretation of compound words as lemmas (on the example of german-uzbek dictionaries). *АСТА НамСУ*, (8), 251-256.
9. Санакулов, З. И., & Мусабекова, М. Н. (2019). Преимущества и недостатки литературных текстов в преподавании иностранных языков. *Молодой ученый*, (3), 378-379.
10. Қаршиева, Д. Э. (2019). ТАЛАБА-ЁШЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ОДИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ. *БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР*, 1.
11. Қаршиева, Д. Э. (2020). Харбий хизматчилар оиласини ижтимоий ҳимояси. *Зирҳли қалқон илмий-ахборот журнали*, 1(1), 35-37.
12. Қаршиева, Д. Э. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ. *МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ— ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА*, 249-250.
13. Karshieva, D. (2020). Social protection is a guarantee of family unity. *Journal of Social Studies*, 7(3), 89-96.
14. Usmonhodjayeva, M. A. (2020). Teacher's Skill in Teaching Military Terms and Their Translation Tips. *International Journal of Research*, 7(01), 45-53.
15. Usmonhodjaeva, M. A., & Shirnazarova, Z. A. (2020). QUESTIONS FROM FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN EDUCATIONAL BODIES. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 6(6), 448-451.
16. Karimova, N., & Usmonhodjaeva, M. (2020). From songs for reading a foreign language use. *International scientific and technical journal innovation technical and technology*, 32-33.
17. Usmankhadjayeva, M. (2019). The culture of speech in future doctors. *Учёный XXI века*, 6(2), 30-31.

18. Usmonhodjaeva, M. A., & Shirnazarova, Z. A. (2020). QUESTIONS FROM FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN EDUCATIONAL BODIES. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 6(6), 448-451.
19. Usmonxodjayeva, M. A. (2020). Teacher's Skill in Teaching Military Terms and Their Translation Tips. *International Journal of Research*, 07(01), 45-53.
20. Abdukhalilova, D. (2020). Semantic properties of pairs of words. *The Journal of National University*, 117-118.
21. Abdukhalilova, D. (2020). Semantic features of double words in German and Uzbek languages. *International scientific-practical conference on modern problems and prospects of learning foreign languages in the education system,,*, 155-158.
22. Abdukhalilova, D. (2020). Morphological features of double words in German and Uzbek languages. *"Current issues of foreign philology and linguodidactics"*, 1(30), 111-113.
23. Abdukhalilova, D. (2020). The study of double words in linguistics [Conference session]. *"Current problems of linguistics and translation studies in the XXI century: theory, practice, innovation" Scientific-practical online conference at the level of higher education institutions under the Ministry of Higher and Secondary Special Educati*, 1(30), 215-220.
24. Санакулов З.И. Сўз ясалишининг лексикографик аспекти (немисча-ўзбекча луғатлар мисолида) // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 4 (33), — Б.31-45
25. Махмудов, Қ. Ш., Санакулов, З. И., Шайхисламов, Н. З., & Қаршиева, Д. Э. (2020). Педагогик таълимда "Кластер". *Science and Education*, 1(7), 587-593.
26. Санакулов, З. И. (2020). НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ МАЪНОСИ (ЧОҒИШТИРМА АСПЕКТДА). *Science and Education*, 1(Special Issue 1), 179-186.
27. Санакулов, З. И. (2019). Using of Fiction in Teaching Foreign Languages as a Factor for Formation of Reproductive Competence. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 77-83.
28. САНАКУЛОВ, З. И., & ХОДЖИЕВ, Р. М. (2018). ИНТЕРНЕТ И ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ. *МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ*, 45(431), 274-277.
29. Sanakulov, Z. (2019). Таълим муассасаларида педагогик таълим инновацион кластер истиқболи. In *Хорижий тилларни ўқитиши самарадорлигини инновацион педагогик таълим кластери асосида амалга ошириши истиқболлари* (pp. 120-124). CSPI.
30. Sanakulov, Z. (2020). Affixation as one of the important objects of grammar. In *Current issues of 21st century linguistics and translation studies: theory, practice, innovation*. NUU. <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.12560474.v1>